

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 4



TOШKENT-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-4>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

IQTISOD

- 1. Odilbekova Xonimjon Jahongir qizi. Rudenko Inna Yurevna.**
 QATTIQ MAISHIY CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH:
 XORIJIY TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR.....8
- 2. S.M.Raximova. V. M. Baxtiyarova.**
 RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONIDA TIBBIY XIZMATLAR
 KO‘RSATISHNI MOLIYALASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....13
- 3. S. Allayarov.**
 MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA STARTAP LOYIHALARDAN
 FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI.....16
- 4. Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li.**
 EKSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQA
 RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIRI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....20
- 5. Matkarimov Feruz Bekturdiyevich.**
 MINTAQA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARINING GLOBAL BOZORDA
 RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....27
- 6. Yulduz Yaqubova Raimovna.**
 OZIQ-OVQAT SANOATIDA TEXNIKA TARAQQIYOTI, INNOVATSION
 TRANSFORMATSIYA VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....33
- 7. Masharipova Xosiyat Matrasulovna. Xalbayeva Maftuna.**
 XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK OMILLAR VA BARQAROR
 HUDUDIY RIVOJLANISH MASALALARI.....38
- 8. Sattarova Dilfuza Dilshodbekova.**
 O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY
 ASOSLARINING YARATILISHI.....43
- 9. Ismailova Gulruh Faxriddinovna.**
 INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALAR VA HUDUDIY IQTISODIY NOMUTANOSIBLIK:
 MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....48
- 10. Jumaniyazova Sharifa Rashidovna.**
 TURISTIK MAHSULOTLAR BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINI
 RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....54
- 11. Li Yang.**
 EDIGITAL SILK ROAD AND SUSTAINABLE TOURISM: ANALYZING THE ADAPTATION
 OF CHINESE DIGITAL PLATFORMS IN UZBEKISTAN.....58
- 12. Sharipova Asaloy. Rudenko Inna Yurevna.**
 THE EFFECTIVENESS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN WATER RESOURCE
 MANAGEMENT.....64

13. Турдиева Якитжан Хайитбаевна.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....68

14. Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o'g'li.

XORAZM VILOYATIDA IQLIM O'ZGARISHI VA INSTITUTIONAL OMILLARNING MINTAQAVIY BARQAROR EKOLOGIK-IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....72

TARIX

1. Дилафруз Ийманова Абдиманнобевна.

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КАДРЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ, МОДДИЙ АҲВОЛИ: МУАММОЛАР ВА САБОҚЛАР (1925-1941 ЙИЛЛАР).....79

2. Ahmadjonova Inobat Baxodir qizi.

MOHENJO-DARO VA HARAPPA SIVILIZATSIYALARINING PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIYOTI.....88

3. Otamuradova Roviyaon Olimboyevna. Joldasova Ozoda Ergash qizi.

MUSTAQILLIK YILLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH, VATANIMIZNING QADIMIY VA BOY TARIXINI O'RGANISH.....92

4. Saotboyev Rahmatjon Madamin o'g'li.

XORAZM VOHASIDA IBTIDOIY SAHNAVIY UNSURLAR VA MAROSIMIY TOMOSHALAR: IJTIMOIY-MADANIY VA TARIXIY ASOSLAR.....95

5. Саидов Шавкат Жумабаевич.

XX АСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....100

6. Salayev Umrbek Kadambayevich.

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA TOSH VA NEOLIT DAVRLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI.....106

7. Safarov Tolib Todjiyevich.

XIVA XONLIGIGA KO'CHIB KELGAN TURKMAN URUG'LARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR.....111

8. Atadjanova Dilnoza Ganiyevna.

JANUBIY XORAZM HUDUDINING ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILISH TARIXI.....116

FILOLOGIYA

1. Xusainova Shaxnozabonu Ergashevna.

ABU RAYHON BERUNIYNING "OSOR UL-BOQIYA" ASARI VA UNING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA SHARQ RUHI HAMDA KONTEKSTUAL O'ZIGA XOSLIKNI SAQLASH..121

2. B.Q. Sapayeva.

O'ZBEK TILI GEMERONIMLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI.....125

- 3. Sobirova Gulasal Zokir qizi.**
THEORETICAL APPROACH TO LINGUISTIC-COGNITIVE APPROACHES IN MODERN LINGUISTICS.....129
- 4. Mokhinur Murodova Azamat qizi.**
ABBREVIATION AND INTERNET SLANG USAGE AMONG MDIST STUDENTS IN VIDEO GAMES AND ONLINE CHATS.....136
- 5. Yusupova Soxiba Islombek qizi.**
INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR SHE’R VA QO‘SHIQLARIDA EMOTSIONAL BO‘YOQDOR SO‘ZLAR.....143
- 6. Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich.**
BADII ASAR USLUBINI QAYTA TIKLASHDA MUTARJIM MAS’ULIYATI (E. HEMINGWAYNING “TO HAVE AND HAVE NOT” ASARI VA UNING TARJIMASAI MISOLIDA).....147

PEDAGOGIKA

- 1. Rajabov Shaxzodbek Baxrom o‘g‘li.**
UMUMIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIK JARAYONIDA BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHISINING BADIY MAHORATINI OSHIRISH.....153
- 2. Davletov Mayliboy Yusupovich.**
O‘ZBEK CHOLG‘U IJROCHILIGI TARIXINI O‘RGANISH ORQALI TALABALARNING MUSIQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI.....161
- 3. Abdirimova Shoxsanam Xudayberganovna.**
VERIFIKATSIYA TAMOYILINING PEDAGOGIK JARAYONDAGI MOHIYATI.....166
- 4. Allamuratova Xurliman.**
TA'LIM KONSEPSIYASINING MOHIYATI VA METODIKADAGI O‘RNI.....170
- 5. Sharipov Allabergan Kamilovich.**
JISMONIY TARBIYA VA SPORT YO'NALISHI BITIRUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIK DARAJASINI ISH BERUVCHILAR BAHOSIGA KO'RA TAHLIL QILISH: SO'ROVNOMA ASOSIDA EMPIRIK TADQIQOT.....176
- 6. Jammатов Jasurbek Sharipovich. Komilova Olima Allabergan qizi.**
TAYYORGARLIK DARAJASINI KROSS-FIT MASHG‘ULOTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: DOLZARBLIK VA ISTIQBOLLAR.....183
- 7. Ким Татьяна Сергеевна.**
СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ ИЕРОГЛИФИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКЕ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ...189

PSIXOLOGIYA

- 1. Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna. Sobirova Xosiyat Rustambekova.**
BOSHLANG‘INCH SINIF O‘QUVCHILARNING XOTIRASINING NEYROPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....195
- 2. Xashimova Sayyora Xolmuradovna.**
IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....199
- 3. Allayarov Dilshod Raximboy o‘g‘li.**
ERKIN KURASHCHILARDA MUSOBAQA OLDI EMOTSIONAL HOLATLARINING MOTIVATSION JARAYONLARGA TA’SIRI.....203

UDK: 94(575.171):008 «636/637»

Salayev Umrbek Kadambayevich

Urganch davlat universiteti, Tarix kafedrası, dotsenti PhD

E-mail: umrbeksalayev2023@gmail.com

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA TOSH VA NEOLIT DAVRLARIDA IJTIMOY-IQTISODIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI.<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20157469>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Quyi Amudaryo hududida tosh, mezolit va neolit davrlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi arxeologik manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududning tabiiy-iqlim sharoiti, insonlarning joylashuvi, o'zlashtiruvchi xo'jalikning rivojlanishi hamda urug' jamoalari tizimi yoritilgan. Burli-3 va Jonbos-4 manzilgohlari misolida ovchilik, baliqchilik va dastlabki hunarmandchilik faoliyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Ustyurt va Quyi Zarafshon hududlari bilan qiyosiy tahlil asosida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning hududiy xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Quyi Amudaryo hududida uzoq vaqt davomida o'zlashtiruvchi xo'jalik ustun bo'lganligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. Quyi Amudaryo, neolit, mezolit, o'zlashtiruvchi xo'jalik, urug' jamoasi, Jonbos-4, Burli-3, Ustyurt, baliqchilik, kulolchilik

УДК: 94(575.171):008 «636/637»

Салаев Умрбек Кадамбаевич

Ургенчский государственный университет,

кафедра истории, доцент, кандидат исторический наук

E-mail: umrbeksalayev2023@gmail.com

ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В НИЖНЕМ АМУДАРЬЕ В КАМЕННОМ И НЕОЛИТИЧЕСКОМ ПЕРИОДАХ

Аннотация. В данной статье на основе археологических источников анализируется формирование социально-экономических отношений в Нижнем Амударье в каменном, мезолитическом и неолитическом периодах. В исследовании освещаются природно-климатические условия региона, расселение населения, развитие присваивающего хозяйства и система родовых общин. На примере поселений Бурли-3 и Джанбас-4 рассматриваются охота, рыболовство и ранние формы ремесленной деятельности. Также на основе сравнительного анализа с территориями Устюрта и Нижнего Зарафшана раскрываются региональные особенности социально-экономических процессов. Результаты исследования показывают, что в Нижнем Амударье на протяжении длительного времени доминировало присваивающее хозяйство.

Ключевые слова: Нижняя Амударья, неолит, мезолит, присваивающее хозяйство, родовая община, Джанбас-4, Бурли-3, Устюрт, рыболовство, гончарное ремесло.

UDC: 94(575.171):008 “636/637”

Salayev Umrbek Kadambayevich
Urgench State University,
Department of History, Senior Lecturer
E-mail: umrebksalayev2023@gmail.com

FORMATION OF SOCIO-ECONOMIC RELATIONS IN THE LOWER AMU DARYA REGION DURING THE STONE AND NEOLITHIC PERIODS

Abstract. This article analyzes the formation of socio-economic relations in the Lower Amu Darya region during the Stone, Mesolithic, and Neolithic periods based on archaeological sources. The study examines the natural and climatic conditions of the region, patterns of human settlement, the development of a subsistence (appropriating) economy, and the structure of tribal communities. Using the examples of the Burli-3 and Jonbos-4 sites, hunting, fishing, and early forms of craft production are analyzed. In addition, a comparative analysis with the Ustyurt and Lower Zarafshan regions reveals the regional characteristics of socio-economic processes. The findings demonstrate that an appropriating economy dominated the Lower Amu Darya region for a long period.

Keywords: Lower Amu Darya, Neolithic, Mesolithic, appropriating economy, tribal community, Jonbos-4, Burli-3, Ustyurt, fishing, pottery.

Kirish. Quyi Amudaryo mintaqasi Markaziy Osiyoda ibtidoiy jamiyat shakllanishi va rivojlanishida muhim hududlardan biri hisoblanadi. Uning tabiiy-iqlim sharoiti, ayniqsa suv havzalari va biologik resurslarga boyligi, insonlarning dastlabki joylashuvi va xo‘jalik faoliyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatgan.

Arxeologik ma‘lumotlarga ko‘ra, ibtidoiy aholi Xorazm vohasining shimoliy qismida, xususan Sulton Uvays tog‘i atrofida istiqomat qilgan. Bu hududda o‘zlashtiruvchi xo‘jalik asosida yashagan jamoalar keyinchalik mintaqaning boshqa qismlarini ham o‘zlashtirgan.

Adabiyotlar tahlili. Quyi Amudaryo hududining ibtidoiy davrlari S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tomonidan keng o‘rganilgan. Uning tadqiqotlari hududning paleolitdan o‘rta asrlargacha bo‘lgan tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega [2; 3].

E.A. Vinogradova va A.V. Vinogradov ishlari tosh va neolit davri manzilgohlarini ilmiy jihatdan asoslab beradi [1; 4]. Shuningdek, E.B. Bijanov tomonidan Ustyurt hududida olib borilgan tadqiqotlar mintaqaviy jarayonlarni tushunishda muhim manba hisoblanadi [6; 7].

Metodologik yondashuv. Tadqiqot arxeologik materiallar, stratigrafik kuzatuvlar, qiyosiy-tarixiy va tizimli tahlil usullariga asoslanadi. Manzilgohlar (Burli-3, Jonbos-4) materiallari asosida xo‘jalik faoliyati va ijtimoiy tuzilma rekonstruksiya qilindi.

Shuningdek, hududlararo taqqoslash (Ustyurt, Quyi Zarafshon, Farg‘ona) orqali ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning umumiy va farqli jihatlari aniqlanadi.

Tahlil. Quyi Amudaryo mintaqasining tabiiy-iqlim sharoiti insonlarning dastlabki joylashuvi va tabiiy resurslardan foydalanishiga qulay imkon yaratgan. Tosh asrida, ayniqsa ashel davrida, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hali rivojlanmagan bo‘lib, asosiy xo‘jalik turi ovchilikdan iborat edi. Arxeologik ma‘lumotlarga ko‘ra, ibtidoiy odamlar Xorazm vohasining shimolida, xususan Sulton Uvays tog‘i atrofida yashagan. E.A. Vinogradova ma‘lumotiga ko‘ra, mil.avv. 35–30 ming yilliklarda Burli-3 manzilgohida aholi istiqomat qilib, keyinchalik boshqa hududlarni ham o‘zlashtirgan. Bu jarayon natijasida o‘zlashtiruvchi xo‘jalik shakllanib, Xorazmda ilk madaniy-xo‘jalik tip yuzaga kelgan. Qoyatosh tasvirlari ovchilikning ustuvorligini tasdiqlaydi [1].

Burli-3 aholisi Vyurm muzligi davrida sovuqqa moslashgan yirik hayvonlarni ovlash orqali kun kechirgan. 1945-yildan boshlab S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi vohada keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, ibtidoiy davrdan XV asrgacha bo‘lgan tarixni yorituvchi muhim manbalarni aniqladi. Xususan, Janbos-4 manzilgohida neolit davriga oid turar-joy qoldiqlari topildi. Tadqiqotlar bu yerda urug‘ jamoalari ona urug‘i asosida boshqarilganini

ko'rsatadi. Ushbu tizimning ilk ko'rinishlari Burli-3 manzilgohida shakllangan bo'lib, ovchilar jamoasi ham ona urug'i asosida tashkil topgan [2].

“Ona” boshchiligidagi jamoalarda mehnat taqsimoti, tartib va hamkorlik muhim ahamiyat kasb etgan. Mezolit davrida oziq-ovqat izlash va yangi hududlarga ko'chish jarayonlari davom etgan. Vyurm muzligining chekinishi natijasida iqlim iliqlashib, xo'jalik faoliyatida o'zgarishlar yuz berdi: yirik hayvonlar kamayib, tez harakatlanuvchi tuyoqlilar ko'paydi va ovchilik rivojlandi. Qoyatosh tasvirlari bu jarayonni tasdiqlaydi. Shu davrda jamoaviy hayot mustahkamlanib, ona urug'i tizimi barqarorlashdi.

Neolit davriga o'tish bilan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda sifat o'zgarishlari yuz berdi, ammo ovchilik va termachilik yetakchi tarmoqlar bo'lib qoldi. Mil.avv. V–IV ming yilliklarda aholi sonining ortishi va resurslar cheklanishi yangi hududlarni o'zlashtirishga olib keldi. Natijada aholi Sulton Uvays tog'i atroflaridan janubi-sharqqa, suv va boy tabiiy resurslarga ega hududlarga ko'chib, Jonbos-4 kabi manzilgohlarni barpo etdi. Bu yerda “Ona” boshchiligidagi 120 ga yaqin aholi turli xo'jalik faoliyati bilan shug'ullangan [3].

A.V. Vinogradov tadqiqotlarida neolit davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi yoritilgan. Jonbos-4 da kulolchilik bilan shug'ullangan hunarmandlar shakl va bezak jihatidan xilma-xil sopol idishlar yasagan. Ular orasida chiziqli va to'lqinsimon naqshlar keng qo'llanilgan [4]. Kema shaklidagi sopol buyumlar baliq ovlashda qayiqdan foydalanilganini ko'rsatadi. Bu esa jamoalarning suv resurslariga tayangan hayot tarzini ifodalaydi.

Mil.avv. IV ming yillikning ikkinchi yarmi – III ming yillik boshlarida Jonbos-4 aholisi Tuyamuyin va Sariqamish hududlarini o'zlashtirib, ijtimoiy tuzumda ona urug'i tizimini, iqtisodiyotda esa o'zlashtiruvchi xo'jalikni saqlab qolgan. Manzilgohlarning suv havzalari yaqinida joylashgani va baliq suyaklarining asosiy ulushni tashkil etishi baliqchilikning ustuvor ahamiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi. Shu bois bu aholi “mohshxo'r” (baliqxo'r) sifatida tavsiflanadi.

Arxeologik nashrlarda qayd qilingan jadvalga ko'ra, suv havzalarida organik dunyosi tarkibi:

Turkiston usachi	5 0,3 %
Suvan	24 1,7 %
Sazan	204 17,4 %
Laqqa	92 6,8%
Cho'rtan	858 61,7 %
Sudak	8 0,6

Tadqiqotchilar qayd qilishicha, Turkiston usachi hajmi 45, o'rtacha 48,2 sm bo'lgan. Sazan-37,2, 32,5, 41,3 sm.

Laqqa –xajmi 43-95 sm, o'rtacha 53,3 sm[5].

Mil.avv. IV–III ming yilliklarda Jonbos-4 aholisi taomnomasida baliq mahsulotlari ustun bo'lib, Kaltaminor madaniyatiga mansub jamoalarning o'zlashtiruvchi xo'jaligi qo'shni hududlarga ham ta'sir ko'rsatgan.

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Xorazm vohasining janubi-g'arbida joylashgan Ustyurt platosi, xususan Shaxpaxta havzasida ashel davrining quyi bosqichidayoq ovchilik va termachilik asosiy mashg'ulot bo'lgan. Qadimiy quduqlar va manzilgohlar tadqiqi bu hudud aholisi turmush tarzini yoritadi. E.B. Bijanov ma'lumotlariga ko'ra, Esen-2, Qoraquduq va Churuk manzilgohlari aholisi tabiiy resurslarga tayangan holda yashagan [6].

Shaxpaxta havzasida ibtidoiy aholi pleystotsen sharoitida sovuqqa moslashgan hayvonlarni ovlash orqali kun kechirgan. Ashel davrining o'rta va so'nggi bosqichlarida shakllangan ovchi jamoalar keyinchalik so'nggi tosh davrida ham Aydabol va Kugesem kabi manzilgohlarda yashab, an'anaviy xo'jalik faoliyatini davom ettirgan. Mezolit davrida muzliklarning chekinishi natijasida hudud ochiq landshaftga aylanishi hayvonot olamiga ham ta'sir ko'rsatgan [7].

So'nggi tosh davrida urug' jamoalari ona rahbarligida tashkil etilib, mehnat taqsimoti va jamoaviy faoliyat yo'lga qo'yilgan. Ustyurt chinkidagi mezolit manzilgohlaridan topilgan chaqmoqtosh qurollarning 36–61% ini ov qurollari (nayza, o'q uchlari, qirg'ichlar) tashkil etgan [8].

Hayvonlarning ko‘chib yurishi ovchilarni keng hududlarni o‘zlashtirishga undab, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga turtki bergan.

Neolit davriga kelib Ustyurtning markaziy va janubiy hududlarida (Kosbulak, Oqtepalik, Adjibat, Alan, Borsa kelmas, Esen 2–3) urug‘ jamoalari ovchilik va termachilik an‘analarini davom ettirgan [9]. E.B. Bijanov ma‘lumotlariga ko‘ra, mil.avv. IV–III ming yilliklarda Isatay-3, Churuk, Kaskajal, Oqtumshiq, Kugesem kabi manzilgohlar aholisi eneolit va bronza davrlarida ham o‘zlashtiruvchi xo‘jalikni saqlab qolgan [10].

Ustyurt hududidagi jamoalar sayg‘oq, jayron kabi hayvonlarni ovlash orqali yashab, mavsumiy manzilgohlardan foydalangan [11]. Shu bilan birga, Quyi Zarafshon vodiysi va Qizilqum hududlarida Zarafshon irmoqlari suvining ko‘tarilishi natijasida ko‘llar tizimi shakllanib, ularning atrofida neolit jamoalari joylashgan. Bu jamoalar ovchilik va baliqchilik bilan shug‘ullangan, ayrim hududlarda esa qo‘y va echkilarni xonakilashtirish boshlangan [12].

Qizilqum hududida ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tish masalasi bahsli bo‘lib, ayrim tadqiqotchilar mil.avv. VII ming yillikdan boshlangan deb hisoblaydi [13]. Biroq tabiiy sharoitlar buni to‘liq tasdiqlamaydi. Ilk dehqonchilik markazlari esa Yaqin Sharq va Kopetdog‘ oldi hududlarida (Chatal-Guyuk, Ierixon, Joytun) shakllangan [14].

Farg‘ona vodiysida neolit davrida ayrim jamoalar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa-da, mezolit davrida ko‘chmanchi turmush tarzi ustun bo‘lgan [15]. Umuman, Oqchadaryo, Tuyamo‘yin, Sariqamish, Quyi Zarafshon va Qizilqum hududlarida ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tish jarayoni hali to‘liq o‘rganilmagan.

Shu bilan birga, so‘nggi paleolit, mezolit va neolit davrlarida Quyi Amudaryo hududining o‘zlashtirilishi natijasida turli madaniy-xo‘jalik hududlar shakllanib, ularda o‘zlashtiruvchi xo‘jalik asosiy iqtisodiy tizim sifatida namoyon bo‘lgan.

So‘nggi tosh davri /35-20-7 ming yilliklar:

Hududi va ilk neolit	
Sulton Uvays tog‘i	
So‘nggi tosh davri	ovchilik
- mezolit	termachilik
- ilk neolit	hunarmandchilik

Neolit davrida Jonbos-4 manzilgohi ovchilik va termachilikka asoslangan xo‘jalik tizimi bilan ajralib turadi. Bu yerda tosh qurollar, qo‘lda ishlangan sopol idishlar va zeb-ziynatlar keng tarqalgan bo‘lib, Jonbos-8 esa ovchilik manzili sifatida faoliyat yuritgan.

Jonbos-4 da urug‘ jamoalari ona urug‘i asosida boshqarilib, iqtisodiy munosabatlar o‘zlashtiruvchi xo‘jalikka tayangan. Asosiy resurslar suv havzalari, ularning organik dunyosi va fauna bilan bog‘liq bo‘lgan. Moddiy madaniyat namunalari kulolchilik buyumlari (bezakli – 10, bezaksiz – 4), tosh qurollar (10), baliq suyaklari (59) va tuxum po‘choqlari (36) kiradi [16].

Quyi Amudaryo hududida ijtimoiy munosabatlar urug‘ jamoalariga asoslangan bo‘lib, iqtisodiy faoliyat Amudaryo dinamikasi hamda ko‘l va suv havzalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

Xulosa. Quyi Amudaryo hududida tosh, mezolit va neolit davrlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi hududning tabiiy-geografik sharoiti, ayniqsa suv resurslari va biologik boyliklari bilan chambarchas bog‘liq holda kechgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dastlabki bosqichlarda ovchilik, termachilik va baliqchilikka asoslangan o‘zlashtiruvchi xo‘jalik ustun bo‘lib, u uzoq vaqt davomida iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli sifatida saqlanib qolgan.

Burli-3 va Jonbos-4 kabi manzilgohlar misolida urug‘ jamoalari, xususan ona urug‘i tizimi asosida shakllangan ijtimoiy tuzilma aniqlandi. Ushbu jamoalarda mehnat taqsimoti, jamoaviylik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muhim o‘rin tutgan. Ayniqsa, Jonbos-4 manzilgohida baliqchilikning ustunligi va kulolchilik kabi dastlabki hunarmandchilik faoliyatining shakllanishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim bosqichi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Ustyurt, Quyi Zarafshon va boshqa tutash hududlar bilan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, mintaqada madaniy-xo‘jalik jarayonlari umumiy qonuniyatlarga ega bo‘lsa-da, tabiiy sharoitlarga qarab o‘ziga xos hududiy xususiyatlar bilan rivojlangan. Xususan, suv havzalari atrofida joylashgan

jamoalarda baliqchilik va ovchilik ustun bo'lgan bo'lsa, ayrim hududlarda chorvachilikka o'tishning dastlabki belgilarini kuzatish mumkin.

Umuman olganda, Quyi Amudaryo hududida ibtidoiy jamiyat taraqqiyoti murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u tabiiy muhit, resurslar va migratsion jarayonlar bilan belgilanadi. Mazkur hududda o'zlashtiruvchi xo'jalikning uzoq muddat ustunligi esa mintaqaning tarixiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Виноградова Е.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге // Приаралье в древности и средневековье. – М.: ИВЛ РАН, Наука, 1998, – С.76-77.
2. Виноградова Е.А.Кўр.асар. – С. 74-77.
3. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М-Л, Наука. 1948. – С.65-70.; О'sha muallif. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Наука, 1962. – С.27-32.
4. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма. – М.: Наука, 1968. – С.38-Рис 8.
5. Никольский Г.В, Радаков Д.В, Лебедев В.Д. Кўр.асар. – С. 209-210.
6. Бижанов Е.Б. Памятники каменного века впадины Шахпахты // Археология Приаралья. –Ташкент: Фан.1982. Вып-2. –С.8-21.
7. Бижанов Е.Б. Мезолитические и неолитические памятники Северо-Западного Устюрта // Археология Приаралья. – Ташкент: Фан, 1982. Вып-1. – С.14-38.
8. Авизова А.К.Трасологический анализ орудий труда стоянок Юго-Восточного Устюрта (Археология Приаралья. – Ташкент: 2003, Вып VI. – С. 17-20.
9. Бижанов Е.Б. Неолитические памятники Юго-Восточного Устюрта // Древняя и средневековая культура Юго-Восточного Устюрта. – Ташкент: Фан.1978. – С.18-79.
10. Бижанов Е.Б.Каменный век Устюрта Авто.реф. на соискание уч степени д.и.н. – Нукус: 1992. – С.35-42.
11. Байлаков К.М., Таймагамбетов Ж.К. Археология Казахстана-Алматы.: «Казак» Университети, 2006. –С.116-117.; Кдырнийазов М.Ш., Ягодин В.М., Мамбетуллаев М.М., Сагдуллаев А.С., Кдырнийазов О.Ш. История цивилизации Хорезма. – Нукус: «Каракалпакистан». 2017. – Б.47-48.
12. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. – Тошкент: “Университет”, 2004. – Б.15-16.
13. Бердимуратов А.Э. Мустақиллик йилларида ўзбек археологиясининг тараққиёти, мустақиллик йилларида ўзбек археологияси. Ютуқлар ва истикболлар. – Самарқанд: 2016.; Сайдуллаев Б.К., Эргашев О.Т. Основные итоги изучения палеолита за 25 лет независимости Узбекистана // Археология Узбекистана в годы независимости достижения «перспективы. – Самарқанд: 2016. – С.33.; Хўжаназаров М., Хошимов Х., Брунег Ф.К Изучению Неолита в Кызылкумах // Узбекистан тарихининг долзарб муаммолари. – Самарқанд: 2016. – Б.15-20.
14. Мелларт Д.Ж. Древнейшие цивилизации Ближнего Востока // Пер с англ. Е.В. Антоновой. – М.: Наука, 1982. – С. 21.; Ллойд С. Археологии Месопотамии // Пер с англ. Я.В. Василькова. – М.: Наука. 1984. – С. 26-39.; Массон В.М. ДЖейтун и Кара-Депе // Предварительные сообщения о работвах 1955 г // СА. – М.: Наука, 1957. – № 1. – С. 144-146.
15. Максудов Ф.А. К проблеме сложения производящего хозяйства в Ферганской долине // История и археология Турана. – Самарқанд: 2016. – Б.45-58.
16. Виноградов А. Неолитические памятники Хорезма. – М.: Наука, 1968. Вып-8. – С. 34.

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].